# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№4

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026
APREL



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, aprel.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish” (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
**Hamkorlarimiz:**
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES....11
**Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.**

ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ....21
**Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна**

BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH....27
**Karayev Payzillaxon Yusufxonovich**

FERMER XO‘JALIKLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH....32
**Xakimov Zafar Ibragimovich**

IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O‘RNI....38
**Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi**

QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI....44
**Igitov Jurabek Kuzibekovich**

ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА....50
**Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ....56
**Халтурдиев Айтмурат Маратович**

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI....64
**Saatova Lolaxon Ergashevna**

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI....71
**Pulatov Abdullo**

MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA....76
**Axmedov Zafarjon Zokirjon**

МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ....80
**Ташпулатов Дильмурад Рустамович**

KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI....85
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILIY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O‘ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA....92
**Atamatov Abduxalil Salomovich**

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR....97
**Qodirov Baxodir Tursunovich, To‘rayev Qaxramon Zokirjonovich**

NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH ....103
Raximova Moxigul Isroiljonovna

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI ....107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi

ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY ....112
Kamilova Nargiza

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI ....115
Sottarov Abduvali Umirqulovich

INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ....120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI ....130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich

SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI ....135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI ....140
Yangiboev Rustam Berdiyarovich

MINTAQA IQTISODIY O‘SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ....145
Turopova Nigora Xolmurod qizi

ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ ....149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович

BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o‘g‘li

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna

O‘ZBEKISTONDA KO‘CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ....169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich

O‘ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI ....174
Safarova Muxabbat Radjabovna

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA’SIRI ....178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO‘NALISHLARI ....186
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li

SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI ....190
Uralov Eliboy Omonovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG‘I RIVOJLANISHINI KO‘P OMILLI BOG‘LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH ........194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna

ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ........201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ........205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov

HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE’MOLCHILAR TALABLARINI O‘RGANISH ........211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILIY IMKONIYATLARI ........217
Atayev Jaxongir Erkinovich

KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH ........221
M.O.Yuldoshova

HUDUDNING “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI ........226
Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA SUV XO‘JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR ........231
To‘rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna

KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARI ........236
Iminova Nargizaxon Akramovna

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG‘OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI ........241
Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich

PAXTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA ........249
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich

ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ........253
Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи

QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH ........259
Eshkarayev Bobir Chariyevich

QISHLOQ XO‘JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING INNOVATSION USULLARI ........265
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMINING AMALIY TAHLILLARI ........273
Hamroyev Sherzod Axtamovich

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА ........280
Тен Марина Владимировна

O‘ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O‘RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI ........287
Sobitova Ra’no Solidjonovna

NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI....290
Mansurov Obid Zaynidinovich

QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI....296
Yahyoyev To'lqin Ismatulla o'g'li

QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI....300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI....306
Norova Nozima Nabiyevna

AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI....312
Boboyev L Kadrxuja Djuraxodjayevich

HUDUD EKSPORT SALOHIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH....318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li



# HUDUD EKSPORT SALOHIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH

**Xurramov Ramazon Allayor o'g'li**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
E-mail: ramazon_xurramov@tues.uz
ORCID: 0009-0001-0170-3053

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida hududlarning eksport salohiyatini statistik jihatdan o'rganishning ahamiyati hamda Béla Balassa tomonidan taklif etilgan RCA indeksi mazmuni va qo'llanilishi batafsil yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining har bir ma'muriy-hududiy birligi bo'yicha eksportning XSST tarkibi asosida RCA indekslari 2024-yil statistik ma'lumotlari negizida hisoblab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: eksport, XSST, hudud, eksport salohiyati, RCA indeksi, ma'muriy-hududiy birliklar.

Abstract. This study highlights the importance of statistically analyzing regional export potential and provides a detailed overview of the RCA index introduced by Béla Balassa. Furthermore, RCA indices were calculated based on the XSST structure of exports for each administrative-territorial unit of the Republic of Uzbekistan using statistical data for 2024. Based on the findings, practical conclusions and recommendations were developed.

Keywords: export, XSST, region, export potential, RCA index, administrative-territorial units.

Аннотация. В данном исследовании раскрыта значимость статистического анализа экспортного потенциала регионов, а также подробно рассмотрен индекс RCA, предложенный Béla Balassa. Кроме того, на основе статистических данных за 2024 год были рассчитаны значения индекса RCA по структуре экспорта XSST для каждого административно-территориального региона Республики Узбекистан. По результатам исследования сформулированы практические выводы и рекомендации.

Ключевые слова: экспорт, XSST, регион, экспортный потенциал, индекс RCA, административно-территориальные единицы.

## KIRISH

Hudud eksport salohiyatini statistik jihatdan tadqiq etish hududlarning xorijiy mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatlarini to'g'ri baholashga, eksportni diversifikatsiya qilishning samarali yo'nalishlarini aniqlashga hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, eksport salohiyatini statistik tahlil qilish yangi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga zamin yaratadi va pirovardida hudud aholisi turmush darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda Béla Balassa tomonidan taklif etilgan Revealed Comparative Advantage (RCA) indeksi keng qoʻllaniladi. Mazkur indeks mamlakat yoki hududning muayyan mahsulot yoki tarmoq boʻyicha eksportdagi nisbiy ustunligini aniqlashda samarali analitik vosita hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tovarlarning Oʻzbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqilishi, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, eksport hisoblanadi [1]. RCA indeksi Oʻzbekiston eksport faoliyatini hamda hududlar iqtisodiyotini viloyatlar kesimida tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, ushbu indeks orqali hududlarda qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik yoki sanoat mahsulotlari boʻyicha ixtisoslashuv darajasi aniqlanadi va baholanadi.

Natijada RCA indeksi eksportni diversifikatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va hududlar iqtisodiy oʻsishini qoʻllab-quvvatlash uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, u eksport siyosatida ustuvor yoʻnalishlarni belgilash hamda raqobatbardosh mahsulotlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois, RCA indeksidan foydalanish hududlarning real qiyosiy ustunliklarini aniqlash, eksport salohiyatini ishonchli baholash va mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslangan qarorlar asosida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vyetnamlik iqtisodchi Do Phu Hai (2025) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda [4, P. 23–31] Béla Balassa (1965) yondashuviga asoslangan RCA (Revealed Comparative Advantage) indeksi yordamida Vyetnam eksportining turli tovar guruhlari boʻyicha nisbiy raqobat ustunligi tahlil qilingan. Tadqiqotda RCA > 1 holati tegishli mahsulot boʻyicha nisbiy ustunlik mavjudligini, RCA < 1 esa uning mavjud emasligini anglatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, 2019–2023-yillar kesimida asosiy eksport sektorlarining RCA koʻrsatkichlari dinamikasi hisoblanib, elektronika va mashinasozlik (HS85) boʻyicha RCA qiymatlarining 2,55 dan 2,87 gacha oshgani aniqlangan. Bu holat mazkur sohada raqobat ustunligining mustahkamlanib borayotganini koʻrsatadi. Aksincha, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari boʻyicha RCA indeksining pasayishi ushbu sektorning nisbiy raqobatbardoshligi kamayganini ifodalaydi.

Avstriyalik tadqiqotchi Edward O. Adigwe tomonidan 2022-yilda olib borilgan tadqiqotda 2009–2018-yillar oraligʻida Béla Balassa tomonidan ishlab chiqilgan RCA indeksi asosida savdo raqobatbardoshligi tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari alohida emas, balki yagona klaster iqtisodiy makon sifatida umumlashtirilgan holda koʻrib chiqilgan. RCA indeksi tovar guruhlari kesimida umumiy eksport koʻrsatkichlari asosida hisoblangan boʻlib, mamlakatlar kesimida differensial tahlil amalga oshirilmagan. Natijalarga koʻra, RCA > 1 boʻlgan iqtisodiyotlar nisbatan yuqori raqobat ustunligiga ega boʻlib, boshqa iqtisodiyotlarga nisbatan samaraliroq natijalarga erishishi aniqlangan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti asosan qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga emas, balki sanoatlashgan (mexanizatsiyalashgan) savdoga tayangan holda rivojlanishi ilmiy asosda xulosa qilingan [2, P. 14–24].

Rémi Stellian va Jenny P. Danna-Buitrago hammualliflіgidagi tadqiqotda RCA indeksi nazariy jihatdan takomillashtirilib, uning metodologik cheklovlarini kamaytirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuv taklif etilgan. Xususan, faqat eksport maʼlumotlariga tayanish, simmetriya va barqarorlik bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish maqsadida savdo balansi asosida shakllantirilgan CTB (Contribution-to-the-Trade-Balance) indekslari bilan uygʻunlashtirilgan model ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuv eksport va import maʼlumotlarini birgalikda hisobga olish orqali mamlakatlarning savdo ixtisoslashuvi hamda raqobat ustunligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Tadqiqotda 1995–2019-yillar maʼlumotlari asosida 36 ta savdo hududi (137 ta mamlakat) boʻyicha 16 ta indeks hisoblanib, ular RCA indeksi bilan taqqoslangan holda barqarorlik, simmetriklik va reyting aniqligi mezonlari asosida baholangan. Natijalar CTB asosidagi indekslarning anʼanaviy RCA indeksiga nisbatan statistik jihatdan yanada barqaror va ishonchli ekanligini koʻrsatadi [7, P. 129–155].

Rossiyalik tadqiqotchi M. Sizyun'go tomonidan olib borilgan tadqiqotda RCA indeksi Rossiya va Xitoyning 2010–2020-yillardagi eksport raqobatbardoshligini baholashda asosiy analitik vosita sifatida qoʻllanilgan. Tahlillar natijasida turli tovar guruhlari kesimida ularning qiyosiy ustunliklari aniqlangan. Xususan, Rossiya eksportida ustunlik asosan xomashyo yoʻnalishida shakllangan boʻlsa, Xitoy eksportida ustunlik texnologik sigʻimli mahsulotlar va isteʼmol tovarlarida namoyon boʻlishi empirik jihatdan asoslab berilgan [12, S. 538–544].

Boshqa bir tadqiqotda RCA indeksi Qozogʻiston, Rossiya va Belarus davlatlarining agrar mahsulotlar eksportidagi qiyosiy ustunliklarini aniqlashda qoʻllanilgan boʻlib, ushbu yondashuv asosida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida eng raqobatbardosh tovar pozitsiyalari belgilab berilgan [11].

Mahalliy tadqiqotchi G.K. Sultanovaning ilmiy ishida Oʻzbekiston eksporti kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda mamlakatning qaysi mahsulotlarda qiyosiy ustunlikka ega ekani, eksport tarkibining murakkablik darajasi, tovarlar xilma-xilligi va eksport yoʻnalishlari turli indekslar asosida baholangan. Shuningdek, “mahsulotlar makoni” va “eksport salohiyati xaritasi” yondashuvlari orqali Oʻzbekiston uchun istiqbolli yangi mahsulotlar va eksport bozorlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari ayrim tovar yoʻnalishlarida mavjud eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirish salohiyati mavjudligini koʻrsatadi [13, S. 68–92].

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar RCA indeksining turli jihatlarini chuqur yoritib bergan bo'lsa-da, hududlar kesimida eksport salohiyatini statistik baholash masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilmasi asosida 14 ta hudud (12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) eksport salohiyati statistik jihatdan tahlil qilindi. Amaliy tahlil obyekti sifatida Surxondaryo viloyati tanlab olinib, uning eksport ko'rsatkichlari asosida hududiy xususiyatlar baholandi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida Béla Balassa (1965) tomonidan ishlab chiqilgan Revealed Comparative Advantage (RCA) indeksi qo'llanildi. Mazkur indeks hududlarning muayyan tovarlar bo'yicha eksportdagi nisbiy ustunligini ularning eksport tarkibini O'zbekistonning umumiy eksporti bilan taqqoslash orqali aniqlash imkonini beradi.

Hisob-kitoblar 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Har bir hudud bo'yicha eksport tarkibi XSST (Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi) bo'yicha guruhlanib, har bir tovar guruhi uchun RCA qiymatlari aniqlandi. Bunda hududning muayyan tovar eksportidagi ulushi uning jami eksportidagi ulushi hamda O'zbekiston umumiy eksportidagi ulushi bilan taqqoslandi.

Olingan natijalar asosida har bir hudud va tovar guruhi kesimida RCA ko'rsatkichlari shakllantirildi hamda ular yordamida hududlarning eksport ixtisoslashuvi darajasi baholandi. RCA > 1 bo'lgan holatlar nisbiy ustunlik mavjudligini, RCA < 1 esa nisbiy ustunlikning nisbatan past darajada ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, RCA qiymatlari asosida mahsulotlar eksporti bo'yicha hududlar ixtisoslashuvi aniqlanib, natijalar jadval ko'rinishida umumlashtirildi hamda Surxondaryo viloyati misolida batafsil tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra 14 ta hududga bo'linadi. Ular 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Ushbu hududlar orasida mamlakatning eng janubida joylashgani Surxondaryo viloyati hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda aynan shu viloyat tanlab olinib, uning misolida aniq ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining o'sishida eksport hajmining ortishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, uning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi 2025-yilning 1-yarim yilligida 8,9 % ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha Surxondaryo viloyati respublikaning boshqa 13 ta hududi bilan taqqoslaganda 11-o'rinni egalladi. Taqqoslash uchun, 1-o'rinda Toshkent shahri (23,5 %), 2-o'rinda Toshkent viloyati (16 %), 3-o'rinda esa Andijon viloyati (13,4 %) qayd etilgan.

Shu bilan birga, Surxondaryo viloyati bo'yicha 2010–2024-yillardagi ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eksport ulushi 2010-yilda eng yuqori darajaga — 13 % ga teng bo'lgan. Keyingi yillarda esa mazkur ko'rsatkich nisbatan barqaror saqlanib, asosan 8,4 % dan yuqori darajaga chiqmagan. Bu esa viloyatda eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. Surxondaryo viloyati eksporti hajmining YaHM hajmidagi ulushi dinamikasi (foizda)[1]

Buning sababini aniqlash uchun Surxondaryo viloyatining so'nggi yillardagi eksport hajmini tahlil qilamiz (2-rasm).

1 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




2-rasm. Surxondaryo viloyati eksporti hajmining oʻzgarish dinamikasi (mln. AQSh dollari)[2]

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, eksport hajmining ortib borishi uning yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushining oshishiga muhim turtki beradi. Viloyat YaHM hajmining oʻsishi esa oʻz navbatida Oʻzbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, pirovardida mamlakat iqtisodiy rivojlanishini taʼminlaydi. Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyatining YaHM hajmi boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2025-yilning yanvar–iyun oylarida 29 515,8 mlrd soʻmlik YaHM bilan 10-oʻrinni, 2024-yilda esa 54 354,1 mlrd soʻmlik YaHM bilan 10-oʻrinni egallagan. Mazkur davrlarda yuqori oʻrinlarni Toshkent shahri (2024-yilda 281 147,4 mlrd soʻm), Toshkent viloyati (2024-yilda 146 385,2 mlrd soʻm) hamda Navoiy viloyati (2024-yilda 117 297,8 mlrd soʻm) egallaganligi kuzatiladi. Ushbu koʻrsatkichlar Surxondaryo viloyati YaHM hajmi 2024-yilda yetakchi hudud koʻrsatkichiga nisbatan 5,2 baravar, 2025-yilning yanvar–iyun oylarida esa 5,4 baravar past ekanligini koʻrsatadi. Bu holat viloyatda mavjud iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanish, xususan, eksport hajmini oshirish orqali iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Shu bois, Surxondaryo viloyatining YaHM hajmini oshirishda eksportni kengaytirish yoʻnalishlarini aniqlash va ushbu yoʻnalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqqoslama ustunlik nazariyasi klassik iqtisodiyot doirasida David Ricardo tomonidan 1817-yilda ishlab chiqilgan boʻlib, u davlatlarning ayrim mahsulotlar boʻyicha nisbiy samaradorlikka ega ekanligini asoslab beradi. Mazkur nazariyani amaliy jihatdan baholash zarurati esa aniq koʻrsatkich ishlab chiqishni talab etgan. Shu asosda Béla Balassa tomonidan 1965-yilda “Trade Liberalisation and ‘Revealed’ Comparative Advantage” nomli ilmiy ishda RCA (Revealed Comparative Advantage) indeksi taklif etilgan. Ushbu indeks mamlakat eksport tarkibini jahon eksport tarkibi bilan taqqoslash orqali muayyan mahsulot boʻyicha qiyosiy ustunlik mavjudligini aniqlash imkonini beradi [3, P. 99–123]. Balassa (1965) taʼrifiga koʻra, maʼlum bir mamlakat i ning k tovar boʻyicha RCA indeksi maxsus formulaga asosan aniqlanadi.

$$RCA_k^i = \frac{\frac{X_k^i}{X^i}}{\frac{X_k}{X}} \qquad (1)$$

bu yerda:

– $X_k^i$ – mamlakat $i$ ning tovar $k$ boʻyicha eksport hajmi;

– $X^i = \sum_k X_k^i$ – mamlakat $i$ ning jami eksporti;

– $X_k = \sum_i X_k^i$ – tovar $k$ boʻyicha jahon eksporti;

– $X = \sum_i \sum_k X_k^i$ – jahonning jami eksporti.

Agar $RCA_k^i > 1$ – mamlakat $i$ tovar $k$ da qiyosiy ustunlikka ega.

Agar $RCA_k^i < 1$ – mamlakat $i$ ushbu tovarda qiyosiy kamchilikka ega [9, P. 232].

Shu tariqa, RCA indeksi mamlakatlarning savdodagi ixtisoslashuv darajasini aniqlash hamda ularni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. Béla Balassa tomonidan kiritilgan ushbu indeks keyingi oʻn yilliklarda xalqaro savdo va iqtisodiy geografiya tadqiqotlarida standart koʻrsatkich sifatida keng qoʻllanib kelmoqda. Keyinchalik uning ayrim metodologik cheklovlarini bartaraf etish maqsadida turli modifikatsiyalar taklif etilgan, jumladan, RSCA (Laursen, 1998) [6], Vollrath (1991) [8, P. 265–280] hamda NRCA (Yu, Cai va Leung, 2009) [10, P. 267–282]. Shunga qaramasdan, RCA indeksining klassik shakli hozirgi kunda ham World

2 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Trade Organization (WTO), UNCTAD, International Trade Centre hamda World Bank kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan asosiy analitik ko‘rsatkich sifatida qo‘llanilmoqda.

Mazkur tadqiqotda qo‘llaniladigan ayrim formulalar moslashtirilib, global miqyos emas, balki O‘zbekiston sharoitida hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Xususan, har bir eksport mahsuloti viloyatlar kesimida alohida hisoblab chiqiladi. Amaliy tahlil dastlab Surxondaryo viloyati misolida olib boriladi. Jumladan, birinchi mahsulot sifatida “xizmatlar” toifasi tanlab olinadi. 2024-yilda Surxondaryo viloyatida xizmatlar eksporti hajmi 6 057,5 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning viloyat jami eksportidagi ulushi 0,0224790025891209 ga, O‘zbekistonning 2024-yildagi umumiy eksportidagi ulushi esa 0,277655747503676 ga teng. Mazkur ko‘rsatkichlar asosida ushbu mahsulot bo‘yicha Surxondaryo viloyati uchun RCA indeksi qiymati tegishli formula asosida aniqlanadi.

$$RCA_{Surx,xizmatlar} = \frac{0,0224790025891209}{0,277655747503676} = 0,0809599757657576.$$

Huddi shunday usulda qolgan hisob-kitoblarni bajarib natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston ma’muriy-hududiy birliklari va eksportning XSST tarkibi bo‘yicha 2024-yildagi RCA qiymatlari[3]

| T/r | Ma’muriy-hududiy birliklar | Xizmatlar | Turli xil tayyor buyumlar | Sanoat tovarlari | Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | Mashinalar va transport asbob-uskunalari | Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | Ichimliklar va tamaki | Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | Boshqa tovarlar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| 1 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 0,0171 | 0,2559 | 1,2283 | 1,2097 | 12,7322 | 0,6011 | 0,0571 | 8,4410 | 0,0000 | 0,9295 | 0,0000 |
| 2 | Andijon viloyati | 0,0584 | 5,7282 | 1,4003 | 0,7874 | 0,2531 | 1,1778 | 9,1057 | 0,1713 | 0,5858 | 0,1957 | 0,0000 |
| 3 | Buxoro viloyati | 0,3385 | 1,3811 | 2,9844 | 0,8651 | 4,6689 | 4,3170 | 0,5222 | 0,2758 | 1,5752 | 9,4035 | 0,0000 |
| 4 | Jizzax viloyati | 0,0321 | 1,6375 | 2,6112 | 5,1098 | 1,5915 | 0,0000 | 0,6384 | 1,1255 | 0,1584 | 0,3832 | 0,0000 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 0,0455 | 0,0048 | 3,1935 | 1,7167 | 0,1872 | 7,0017 | 0,1060 | 0,0410 | 0,2681 | 4,6337 | 0,0267 |
| 6 | Navoiy viloyati | 0,0074 | 0,4897 | 0,8400 | 0,4112 | 1,5736 | 0,6617 | 0,0437 | 12,3839 | 0,0000 | 0,9932 | 0,0000 |
| 7 | Namangan viloyati | 0,0302 | 5,1176 | 3,0437 | 2,0621 | 1,2374 | 0,2011 | 2,0023 | 0,2754 | 0,7495 | 0,6147 | 0,0710 |
| 8 | Samarqand viloyati | 0,3001 | 1,0373 | 1,7894 | 4,9615 | 2,1204 | 0,5473 | 2,8153 | 0,1655 | 0,3610 | 11,3511 | 0,0000 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 0,0810 | 0,8887 | 1,2911 | 8,2411 | 4,2661 | 0,0001 | 0,4115 | 0,0487 | 0,0675 | 0,7061 | 0,0525 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 0,0647 | 1,9193 | 1,9297 | 6,5191 | 3,3808 | 0,0588 | 0,4079 | 0,4573 | 0,0694 | 0,2208 | 0,0000 |
| 11 | Toshkent viloyati | 0,0215 | 2,9015 | 3,8281 | 1,8120 | 2,8722 | 0,2971 | 0,8852 | 0,8106 | 0,7677 | 3,3568 | 0,0000 |
| 12 | Farg‘ona viloyati | 0,0549 | 2,0030 | 2,1017 | 5,5436 | 2,2500 | 0,1186 | 0,2089 | 1,5770 | 0,2621 | 0,0759 | 0,0000 |
| 13 | Xorazm viloyati | 0,2433 | 0,5965 | 1,9812 | 7,1707 | 1,2928 | 0,2224 | 0,0321 | 0,0338 | 0,1870 | 1,8280 | 0,0000 |
| 14 | Toshkent shahri | 1,9135 | 0,8157 | 1,0872 | 0,4888 | 0,7383 | 1,0678 | 1,7343 | 1,0991 | 3,4696 | 0,4990 | 0,0285 |

3 Muallif hisob-kitobi.

Tovarlar tashqi savdosi statistik koʻrsatkichlarini shakllantirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi oʻrinlarda — TIF TN) bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi oʻrinlarda — XSST) ham qoʻllaniladi. Tovarlarni XSST boʻyicha kodlashtirish TIF TN va XSST oʻrtasidagi moslashtirish kalitlari orqali amalga oshiriladi.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, ayrim eksport turlari boʻyicha hududlar kesimida ixtisoslashuv darajasi sezilarli farqlanadi. Xususan, “xizmatlar eksporti” boʻyicha ixtisoslashuv faqat Toshkent shahrida kuzatiladi. “Turli xil tayyor buyumlar eksporti” yoʻnalishida esa Andijon, Buxoro, Jizzax, Fargʻona, Namangan, Samarqand, Sirdaryo hamda Toshkent viloyatlarida nisbiy ustunlik mavjud boʻlib, bu holat ushbu hududlar uchun RCA > 1 sharti bajarilgani bilan izohlanadi. Shu kabi yondashuv asosida boshqa eksport turlari boʻyicha ham hududlarning ixtisoslashuv darajasini aniqlash mumkin.

Tadqiqotda 1 dan yuqori boʻlgan RCA qiymatlari uch guruhga ajratildi: 1 < RCA ≤ 2 — zaif qiyosiy ustunlik, 2 < RCA ≤ 4 — oʻrta qiyosiy ustunlik, RCA > 4 — kuchli qiyosiy ustunlik [5]. Ushbu tasnifga muvofiq, kuchli qiyosiy ustunlikka ega boʻlgan “mahsulot–hudud” kombinatsiyalari quyidagicha aniqlanadi: turli xil tayyor buyumlar eksporti boʻyicha Andijon viloyati (5,7282) va Namangan viloyati (5,1176); oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti boʻyicha Surxondaryo viloyati (8,2411), Jizzax viloyati (5,1098), Fargʻona viloyati (5,5436), Samarqand viloyati (4,9615), Sirdaryo viloyati (6,5191) hamda Xorazm viloyati (7,1707); nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari) eksporti boʻyicha Surxondaryo viloyati (4,2661), Buxoro viloyati (4,6689) va Qoraqalpogʻiston Respublikasi (12,7322); mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar eksporti boʻyicha Buxoro viloyati (4,3170) hamda Qashqadaryo viloyati (7,0017); mashinalar va transport asbob-uskunalari eksporti boʻyicha Andijon viloyati (9,1057); kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar eksporti boʻyicha Navoiy viloyati (12,3839) hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi (8,4410); hayvon va oʻsimlik moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar eksporti boʻyicha Buxoro viloyati (9,4035), Qashqadaryo viloyati (4,6337) va Samarqand viloyati (11,3511).

Mazkur natijalar shuni koʻrsatadiki, 2024-yilda yettita eksport mahsuloti turi boʻyicha ayrim hududlarda respublika oʻrtacha darajasiga nisbatan yuqori ixtisoslashuv shakllangan. Jumladan, Surxondaryo viloyati “oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar” hamda “nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari)” XSST guruhlari boʻyicha eksportda yuqori ixtisoslashuv darajasiga erishgan boʻlib, bu hududning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun muhim asos boʻlib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda Oʻzbekiston Respublikasining 14 ta maʼmuriy-hududiy birligi kesimida eksport salohiyati statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududlarning eksport ixtisoslashuvini Revealed Comparative Advantage (RCA) indeksi asosida aniqlashdan iborat boʻldi. Tahlillar natijalari RCA indeksining hududlar va tovar guruhlari boʻyicha eksportdagi nisbiy ustunlikni aniqlashda samarali analitik vosita ekanligini koʻrsatdi. 2024-yil maʼlumotlari asosida olingan natijalar hududlar oʻrtasida eksport ixtisoslashuvi darajasi sezilarli farqlanishini tasdiqladi.

Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar ushbu hudud ayrim tovar guruhlari, xususan “oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar” hamda “nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari)” yoʻnalishlarida nisbiy ustunlikka ega ekanligini koʻrsatdi. Shu bilan birga, boshqa hududlarda ham turli tovar guruhlari boʻyicha yuqori RCA qiymatlari aniqlanib, ularning oʻziga xos eksport ixtisoslashuvi shakllanganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Umuman olganda, RCA indeksi asosida amalga oshirilgan tahlil Oʻzbekiston hududlarining eksport tarkibi va raqobat ustunliklarini aniqlash, shuningdek, ularning iqtisodiy ixtisoslashuv darajasini baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida hududlar kesimida eksportni diversifikatsiya qilish va RCA indeksi past boʻlgan tarmoqlarni rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, RCA > 1 boʻlgan mahsulot guruhlarini qoʻllab-quvvatlash orqali mavjud qiyosiy ustunliklarni mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish maqsadida hududlar boʻyicha ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish, statistik tahlillarni muntazam yangilab borish orqali RCA asosida hududiy eksport strategiyalarini shakllantirish hamda kelgusida RCA indeksini boshqa koʻrsatkichlar bilan birgalikda qoʻllash orqali eksport salohiyatini yanada chuqurroq baholash zarurligi asoslab berildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi. “Tashqi iqtisodiy faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonun, 77-II-son, 26-05-2000. — URL: https://lex.uz/docs/-67345.
2. Adigwe, E. O. (2022). A comparative analysis of competitive trade in a cluster market of the European Union: The Revealed Comparative Advantage (RCA) index. Naše gospodarstvo / Our Economy, 68(1), 14–24. — URL: https://www.econstor.eu/bitstream/10419/290509/1/1800310471.pdf.
3. Balassa, B. (1965). Trade liberalisation and “revealed” comparative advantage. The Manchester School, 33(2), 99–123. — URL: https://www.sci-hub.ru/10.1111/j.1467-9957.1965.tb00050.x.

4. Do, P. H. (2025). Vietnam's export competitiveness: A revealed comparative advantage and partner commercial advantage analysis. The Journal of Social, Political and Economic Studies, 50(3), 23–31. — URL: https://www.researchgate.net/publication/391862817.
5. Hinloopen, J., & van Marrewijk, C. (2000). On the empirical distribution of the Balassa index. — P. 8. — URL: https://scispace.com/pdf/on-the-empirical-distribution-of-the-balassa-index-3wnd37dgi8.pdf.
6. Laursen, K. (1998). Revealed comparative advantage and the alternatives as measures of international specialisation. Working Paper No. 98–30. Copenhagen: DRUID. — URL: https://research.cbs.dk/files/59046863/DRUID_Working_Paper_No._98_30.pdf.
7. Stellian, R., & Danna-Buitrago, J. P. (2022). Revealed comparative advantage and contribution-to-the-trade-balance indexes. International Economics, 170, 129–155. — https://doi.org/10.1016/j.inteco.2022.02.007.
8. Vollrath, T. L. (1991). A theoretical evaluation of alternative trade intensity measures of revealed comparative advantage. Weltwirtschaftliches Archiv, 127(2), 265–280. — https://doi.org/10.1007/BF02707986.
9. World Trade Organization & United Nations Conference on Trade and Development. (2012). World Trade Report. — Ch. 1, Eq. 1.19, p. 232. — URL: https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wto_unctad12_e.pdf.
10. Yu, R., Cai, J., & Leung, P. (2009). The normalized revealed comparative advantage index. Annals of Regional Science, 43(1), 267–282. — URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s00168-008-0213-3.
11. Невматулина, З. А. (2016). Оценка конкурентоспособности секторов АПК Казахстана в условиях ЕАЭС. Национальная ассоциация ученых, № 9(25). — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-konkurentosposobnosti-sektorov-apk-kazahstana-v-usloviyah-eaes/pdf.
12. Сизьунго, М. (2021). Анализ конкурентных преимуществ экспорта России и Китая в период 2010–2020 гг. Управленческий учет, № 12, 538–544. — URL: https://www.uprav-uchet.ru/index.php/journal/article/view/1459.
13. Султанова, Г. К. (2025). Возможности диверсификации товарной структуры и географии экспорта Узбекистана. Российский внешнеэкономический вестник, № 4, 68–92. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-diversifikatsii-tovarnoy-struktury-i-geografii-eksporta-uzbekistana/pdf.

muhandislik & iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100